

SURXONDARYO VILOYATI YER OSTI SUV RESURLARIDAN OQILONA FOYDALANISH

Xo'shboqova Mehriniso Gulmurod qizi

Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Shamilova Dildora Rustam qizi

Geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Abdurahimova Ozoda Xurramovna

Geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Ko'chkinova Sojida Jo'ra qizi

Geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10623098>

Annotasiya. Maqolada Surxondaryo havzasining yer osti suv resurslarining hosil bo'lishi va zahirasi, joylashuvi, dinamikasi, mineral tarkibining asosiy xususiyatlari haqida fikr boradi. Yer osti suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: yer osti suvlari, dinamikasi, paleogen va neogen yotqiziqlari, mineral tarkibi, aholini chuchuk suv bilan ta'minlash, shifobaxsh xususiyatlari.

Kirish. Surxondaryo havzasi yer osti suv zahiralari ancha boydir. Viloyat gidrogeologik jihatdan SHerobod-Surxondaryo artezian havzasiga kiradi. Yerosti suvlari bo'r, paleogen va neogen, antropogen davrlar yotqiziqlar orasida vujudga kelgan. Bo'r davri yotqiziqlari orasidagi yer osti suvlari minerallashtirgan termik suvlardan tarkib topgan. Viloyatda katta yerosti suv zahiralari neogen jinslari orasida uchraydi, ular 140-150 m chuqurlikdan chiqib, ushbu yer osti suvlari minerallashtirgan va harorati yuqoridir. Havzadagi yer osti suvlarining asosiy xususiyatlaridan biri uning shifobaxshligidir. Surxondaryo havzasidagi yer osti suv resurslaridan aholini chuchuk suv bilan ta'minlash va davolash maqsadida foydalanishning istiqbolli ahamiyati beqiyosdir.

Ishning maqsadi va vazifalari. Surxondaryo havzasi yer osti suv hosil bo'lishining asosiy xususiyatlari tavsiflash va ulardan oqilona foydalanish masalalari o'rganish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Asosiy qism. Surxondaryo havzasi yer osti suv zahiralari tog' va tog'oldi mintaqalarida buloqlar tarzida hosil bo'lgan. Havzdagi yer osti suvlarining asosiy xususiyatlaridan biri - yer osti suvlari minerallashtirgan termik suvlardan tarkib topganligidir. Surxondaryo havzasida 300 ha yaqin yer osti suvlarining konlari topilgan. Hozirgi kunda aholi chuchuk suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishda yer osti chuchuk suvlari muhim ahamiyatga egadir. Tog'oldi hududida hosil bo'lgan Xo'jaipok va Poshxurt yer osti konlari aholini chuchuk suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishda samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, Xo'jaipok yer osti chuchuk suv konida 55 ta burug'ulash quduqlari qazilgan bo'lib, ushbu kondan qazib chiqarilayotgan chuchuk suv bilan viloyatning SHerobod, Qiziriq, Angor, Muzrabot tumanlari aholisi ehtiyoji qondirilib kelinmoqda. Poshxurt yer osti chuchuk suv koni SHerobod tumanining g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shimol, shimoli-g'arb va g'arbdan "Ko'hitang" tog' tizmasi, janub va janubi-g'arbdan Kelif-SHerobod gryadasi bilan chegaralangan hamda shimoliy sharqdan janubiy g'arb tomonga cho'zilgan tog'lar oralig'idagi botiqda joylashgan. Mazkur hududda tumanning "Poshxurt", "Zarabog", "Qorabog", "Maydon", "Qizil olma", "Kampirtepa", "SHolqon", "CHorbog", "Oqtosh", "G'oz", "Vandob", "SHERjon" va boshqa qishloqlari joylashgan bo'lib, ularda jami 26 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi. Mazkur

hududda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash hamda yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida 47 ta burg'u quduqlari qazilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 14-iyundagi 171-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Suvdan maxsus foydalanish yoki suvni maxsus iste'mol qilish uchun ruxsatnoma berish tartibitog'risida"gi Nizomi asosida Surxondaryo viloyatida mineral buloq konlarini izlab topish ishlari amalga oshirildi va natijada viloyatimizda 300 dan ortiq mineral buloq konlari mavjudligi aniqlandi. Buloq suvi daryo suviga qaraganda toza va tiniq bo'ladi. Tog' bag'ridagi jinslarni eritib o'z tarkibini shifobaxsh minerallarga boyitgan holda yuzaga chiqadi. Unda kasallik tarqatuvchi bakteriyalar ham bo'lmaydi. Shu sababli ham bu yerda yashovchi aholi orasida yurak-qon tomir kasalliklari kam uchraydi, ba'zi bemorlar esa o'z dardiga shifo topadolar. Buloq suvlarining shifobaxshlik xususiyati bir necha asrlardan beri bizga ma'lum. Bu xususida Ibn Sino ham to'xtalib, sho'r hamda tarkibida oltingugurt, mis, temir bo'lgan suvlarning terapevtik ta'sirini yozgan edi. Yer osti suvlarining Yer yuzasiga chiqishi buloq deb ataladi. Yer po'stining yuqori qismida joylashgan cho'kindi tog' jinslari tarkibida hamma joyda yoppasiga yer osti suvlari mavjud. Bu yerda uchta qatlam ajraladi:

- yuqori qatlam;
- o'rta qatlam;

Faqatgina o'rta qatlam qadimgi suvlardan iborat. Ular asta-sekin yoshroq (yangi) suvlar tomonidan siqib chiqariladi. Ular mineral suvlar hisoblanadi, shuning uchun ular davolash maqsadlarida ishlatiladi. Bu qatlamda suv almashinishi sekin kechadi. Surxondaryo viloyati tabiiy geografik nuqtai nazardan sharq, g'arb va shimol tomondan tog'lar bilan o'ralgan, faqtgina janubiy qismi bundan mystasno. Shu jihatlarni hisobga oladigan bo'lsak viloyatimizning barcha qismida mineral buloq konlarini uchratishimiz mumkin. Ularnig asosiy qismi Hisor, Boysuntog', Bobotog' va Ko'hitang tog'larida, tog' etaklarida va soylarda joylashgan. Boysun tumanidagi "Omonxona bulog'i", "Xo'jamayxona bulog'i", Oltinsoy tumanidagi "Xo'jaipokota bulog'i", Sherobod tumanidagi "Go'rimbuloq" bulog'i kabi buloqlar o'zining shifobaxshligi bilan ajralib turadi. Mineral shifobaxsh suvli buloq suvlari ancha chuqur qatlamlardan sizib chiqqanligi sababli suvining harorati odatdagi suvlardan ancha past, ko'pincha 8-12 daraja atrofida bo'ladi. Ba'zi shifobaxsh suvlarning harorati yuqori bo'ladi. Chunki tog' bag'rining chuqur qatlamlarigacha tilib o'tgan tektonik yoriqlar yerga shimilgan yog'in suvlarini o'ziga yig'ib bu suvlarni chuqur qatlamlarga tushib isishiga sabab bo'ladi. Bu isigan suvlar tektonik yoriqlarning nishab tomonga oqib, minerallashgan holda relyefning qulay joylarini topib yana yer sathiga chiqadi. Bunday buloq suvlaridan oltingugurt ajralib chiqadi. Xo'jaipok bulog'i - harorati 21 daraja bo'lgan, ohaktoshli qatlamlar orasidan chiquvchi mineral suvli Xo'jaipok ota bulog'i dengiz sathidan 902 metr balandlikda joylashgan bo'lib, bu yerdagi karst g'oridan chiqayotgan oltingugurt vodorodga to'yingan suv hisoblanadi. G'or ichida 20 litr / sekundni tashkil qiladigan yirik buloq joylashgan. G'or Surxondaryoning o'ng irmog'i bo'lmish Xo'jaipok daryosi vodiysida joylashgan. G'orning devorlarini qoplagan ohaktosh yoriqlarida rezinaga o'xshash uglevodorod qoldiqlari, chetlarida oltingugurt va shaffof gipsning ulkan kristallari aniqlangan. Bu yerdan chiqadigan suv minerallarga boyligi uchun qorinning dam bo'lishi, oshqozon ichak kasalliklariga shifo ekanligi aniqlangan. Omonxona bulog'i - Boysun toglari bagrida Omonxona bulogi joylashgan. Uzoq yillik tarixga ega Omonxona quyuq archazorlar bilan qoplangan.. Omonxona buloq suvi tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va boshqa ko'plab mikroelementlar mavjudligi

aniqlangan. Mutaxassislarining fikricha, bunday vitamin va minerallarga boy buloq suvi inson tanasini, ayniqsa, jigar, o't pufagi yo'llarini davolash xususiyatiga ega. Ayniqsa, tananing ichki organlarini yuvishda qo'llaniladigan zamonaviy gemodez suyuqligi bilan solishtirilsa, foydali va zararsizligiga ko'ra Omonxona buloq suvi bir necha marta undan ustun turadi. Boysunliklar orasida Omonxona tarixi haqida turli rivoyatlar yuradi. Atrofida "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksiyadorlik kompaniyasi tomonidan "Omonxona" balneologik shifoxonasi qurilib ishga tushirilgan bo'lib, hozirgi kunda Respublikamiz va chet ellik bemorlar oshqozon-ichak, jigar va o't kasalliklari bo'yicha davolanib kelmoqdalar. Sayrob bulog'i - Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi Sayrob qishlog'ida joylashgan. Buloq Darbanddan Sayrob orqali Sherobodga va undan Termizga boradigan yo'l bo'yidagi 600 yillik mashhur. Sayrob chinoriga yaqin yerda joylashgan. Ohakli jinslar orasidan oqib chiquvchi suvning sarfi sekundiga 50 litrgacha yetadi. Uning suvi chuchuk, mazasi yoqimli. Tarkibida sulfat, gidrokarbonatli tuzlar va kalsiy moddalari bor. Harorati 9°C. Mahalliy aholi undan ichimlik suvi sifatida foydalanadi. Suv yuzasi dumaloq shaklda bo'lib, diametri 3-5 metrni tashkil etadi. Buloqning chiqish joyida baliqlar yashaydi.

G'o'rimbuloq bulog'i - Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi Xomkon qishlog'ida joylashgan. Buloq suvi ichki a'zolar xastaliklari, jumladan oshqozon-ichak, jigar o't toshi, buyrak toshi kasalliklariga davo ekanligi isbotlangan. "Oqsuv" bulog'i - Bobotog' tog'idagi "Oqsuv" bulog'idan ko'pincha mahalliy aholi foydalanadi. Buloq suvi tarkibida, oltingugurt uchraydi. Mazkur suvlarning tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan mikroelementlar, turli xil minerallar jumladan kaliy, kalsiy, natriy, rux kabi mikroelementlar yetarli darajada mavjud. Shakarlik ostona bulog'i - Sherobod tumani markazidan taxminan 25 km shimoli-sharqda joylashgan. Uning suvi ohakli jinslar orasidan otilib chiqib chuqur soyga quyiladi. Tarkibida tuz (66 gr/l), xlorid sulfat bo'lgan 5-6 kichik buloqlar soy o'zani bo'ylab otilib yotadi. Suvining harorati 17° C, suvi tiniq bo'lmay, neft parda bilan qoplangan. Buloq atrofida mineral qoldiqlar oxra, quyilma tuz va balchiqlar hosil bo'lgan. Buloqlarning ba'zilari balneologik xususiyatga ega. Xo'ja Mayxona ota bulog'i - Boysun tumani Ketmonchopti tog'i etagida, dengiz sathidan 1800-2000 metr balandlikda joylashgan. Tog' yuzasida ko'plab karst dahanalari hosil bo'lgan. Xo'ja Mayxona ota bulog'i ham shifobaxsh suvli buloq hisoblanadi. Buloqning suv sarfi sekundiga 10 litrni tashkil etadi. Surxondaryo havzasi tekislik qismida ham oz bo'lsada buloqlar hosil bo'lgan. Termiz tumani Uchqizil suv omborining sharqiy qismida joylashgan mineral buloqning ham ahamiyati, viloyatimiz balki qo'shni viloyat va qo'shni respublikalar aholisining mazkur buloqdan foydalanayotganligi, insonlarning sihat-salomatligi yo'lida ahamiyati kattadir. "Jayronxona" bulog'i - Termiz shahridan 22 km shimoli-sharqda, dengiz sathidan 400 metr balandlikda joylashgan. Buloq negizida bu yerda "Jayronxona" shifoxonasi barpo etilgan. Buloq suvi harorati 33-40°C, tarkibi xlorid, kalsiy va natriyli, yuqori minerallashtirgan (30-35 g/l), erkin vodorod sulfidning miqdori turli 1uduqlarda 70 da 600 mg/l bo'lgan suv hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bu suvdan "Jayronxona" fizioterapiyaviy shifoxonasida bemorlarni davolashda vanna muolajasi uchun keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda.

Xulosa. Surxondaryo havzasi yer osti suv resurslaridan oqilona foydalanish bilan birga aholini ichimlik suvi ta'minoti va davolash maqsadida foydalanishni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

References:

1. Xikmatov F, Aytbayev, D.P, Yunusov G'.X. Umumiy gidrologiya, o'quv uslubiy majmua.
2. Yer osti suvlarining dinamikasi o'quv uslubiy majmua.
3. B. Toshmuhammedov „Umumiy geologiya" Toshkent: "Noshir" nashriyoti, 2011.
4. Surxondaryo havzasi yer osti suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalari, ilmiy ma'lumotlar.
5. Xasanov I.G', G'ulomov P.N., Qayumov A.A. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" 2 qism.
6. Baratov P. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" O'qituvchi -1979.
7. G'ulomov P.N. "O'zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari" Toshkent-1990.
8. Xasanov I.A, G'ulomov P.N "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" ma'ruzalar matni. Toshkent "Universitet" 2000.
9. O'zbekiston Respublikasi tabiiy kartasi.
10. Surxondaryo viloyati tabiiy kartasi.



INNOVATIVE
ACADEMY